O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ELIBOYEV ILYOS ASKAROVICH

SIKLODEKSTRIN ASOSIDAGI SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARNING ELEKTROKIMYOVIY VA ADSORBSION XOSSALARI

02.00.04 – Fizik kimyo (kimyo fanlari)
02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi (kimyo fanlari)

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘T 541.138.2; 546.185.4; 661.635.68.

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ELIBOYEV ILYOS ASKAROVICH

SIKLODEKSTRIN ASOSIDAGI SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARNING ELEKTROKIMYOVIY VA ADSORBSION XOSSALARI

02.00.04 – Fizik kimyo (kimyo fanlari)
02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi (kimyo fanlari)

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K560 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-kimyo.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:	**Xoliqov Abduvali Jonizoqovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Berdimurodov Elyor Tuxliyevich kimyo fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ro‘zimuradov Olim Narbekovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Qodirov Hasan Irgashevich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 06-aprel soat 11^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent,Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№20 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4 uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 12-mart kuni tarqatildi.
(2024-yil 11-martdagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

X.I.Akbarov
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda metallarni korroziyadan himoya qiluvchi turli kislotali muhitlarda yuqori samaradorlikka ega hamda import o‘rnini bosuvchi ingibitorlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Texnika va sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishi natijasida metallarga bo‘lgan talab yildan yilga ortib bormoqda, bu esa, o‘z navbatida, samarali ingibitorlarga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari zaharli va yuqori konsentratsiyalarda qo‘llaniluvchi birikmalardan voz kechgan holda iqtisodiy tomondan qulay bo‘lgan ekologik xavfsiz supramolekulyar kompleks tipidagi ingibitorlar yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, metall sirtida mustahkam himoya qavati hosil qiluvchi hamda past konsentratsiyalarda va turli harorat intervalida samaradorlikka ega ingibitorlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda metallar korroziyasiga qarshi qo‘llaniladigan ingibitorlarga bo‘lgan talabning o‘sib borishi, organik va supramolekulyar birikmalar asosida yangi, universal ingibitorlarni yaratish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi muammolarni hal qilishda mahalliy xomashyolardan talab etilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan ingibitorlarni olish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘simliklardan ajratib olinadigan organik moddalarni qo‘llagan holda yashil ingibitorlar orqali metallar korroziyasini kamaytirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, sanoatni barqarorlashtirish, jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida muayyan natijalarga erishilmoqda, ayniqsa, turli agressiv muhitlarda, suvli sovitish yoki isitish tizimlarida, neft va gaz sanoatida metall materiallarni korroziyadan himoya qilishning ilmiy asoslarini yaratishga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash[1]”ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan import o‘rnini bosuvchi, eksportbop, raqobatbardosh, jahon sifat standartlari talablariga mos bo‘lgan, kam konsentratsiyada yuqori samaradorlikka ega, xavfsiz, biologik parchalanuvchi korroziyaga qarshi ingibitorlarni yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-sonli “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlarida nazarda tutilgan vazifalarni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3264-sonli “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Butun dunyoda olimlar tomonidan olib borilayotgan ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari korroziya ingibitorlarining yangi avlodini ishlab chiqarishga bag‘ishlangan. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, juda ko‘p ishlar (L.Guo, B.Fan, D.K.Verma, A.Dehghani, O.Dagdag, F.Damien, J.Berge, J.Wang, G.T.Burstein va O.R.Mattos) elektrokimyoviy usullar tadqiqotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda ingibitorlar sifatida turli xil materiallar qo‘llanilgan. Bugungi kunda korroziya ingibitorlari tadqiqotlarida fizik-kimyoviy, elektrokimyoviy va boshqa turli usullar ishlab chiqilgan, biroq texnologiya rivojlanishi bilan korroziya jarayonida organik birikmalarni ingibitor sifatida ta’sir qilish mexanizmi hamda po‘lat sirtiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston olimlari, jumladan, R.S.Tillayev, Z.A.Tadjixodjayev, F.K.Kurbanov, A.T.Djalilov, A.Ikramov, D.Yusupov, X.I.Akbarov, V.P.Guro, A.J.Xoliqov, X.I.Qodirov, N.B.Eshmamatova, E.T.Berdimurodov va boshqalar metallarni korroziyadan himoyalash muammosini hal qilishda hamda ingibitorlar sifatida ishlatiladigan kimyoviy birikmalarni yangi avlodini sintez qilib olinishida o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan katta hissa qo‘shganlar. Lekin po‘lat 20 sirtining siklodekstrin asosidagi supramolekulyar komplekslar bilan ingibirlash mexanizmlari kuchli kislotali muhitlarda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-12-46 “Polielektrolitlarning antikorrozion samaradorligini oshirish va uni amaliyotga qo‘llash” (2015-2017-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi siklodekstrin asosidagi supramolekulyar komplekslar sintez qilish hamda ularning kuchli kislotali muhitda po‘lat korroziyasiga qarshi elektrokimyoviy va adsorbsion xossalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Beta siklodekstrin asosida supramolekulyar komplekslarni sintez qilish va ularning tuzilishini IQ, ^{1}H YaMR, Raman spektroskopiya, TGA usullari yordamida aniqlash;

gravimetrik usul yordamida siklodekstrin asosidagi ingibitorlarning adsorbsion samaradorligi, himoyalash darajalari, faollanish va termodinamik xossalarini tadqiq qilish;

potensiodinamik qutblanish va elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiya usullari yordamida po‘lat 20 namunalari uchun kuchli kislotali muhitlarda ingibitorlarning samaradorligini o‘rganish;

elektron mikroskoplar, kvant-kimyoviy hisoblashlar va Raman spektroskopiyasi yordamida metall sirtdagi strukturaviy o‘zgarishlarga ingibitorlarning ta’sirini o‘rganish;

ingibirlash mexanizmlari, ingibitor va metall yuzasining o‘zora tasirlarini atom darajadagi ko‘rinishlarini zichlik funksional nazariyasi, MK va MD simulyatsiyalari yordmida tadqiq qilish;

ingibitorlarning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya sinovlarini o‘tkazish va ularni kon-metallurgiya kombinatlari bilan neft-gaz sanoati korxonalariga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida beta siklodekstrin ortofenilendiamin (β-SDoFDA), beta siklodekstrin melamin (β-SDME), beta siklodekstrin 1,5-difenilkarbazid (β-SDDFK), beta siklodekstrin naftilamin-1 (β-SDNA) va beta siklodekstrin atsetanilid (β-SDAS) supramolekulyar komplekslar olingan.

Tadqiqotning predmetiga gravimetrik, elektrokimyoviy, sirt tahlili usullari va kvant kimyoviy hisob-kitoblari bilan metallarni korroziyadan himoyalash hamda ingibirlash mexanizmlarining umumiy qonuniyatlarini tadqiq qilish kiradi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida infraqizil spektroskopiya, Raman spektroskopiya, proton yadro magnit-rezonans spektroskopiya, termogravimetrik analiz, gravimetrik, potensiodinamik qutblanish, elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskop, energiya-dispersion spektroskopiya, atom kuch mikroskop, zichlik funksional nazariyasi, Monte Karlo va molekulyar dinamik simulyatsiya usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor β-SDoFDA, β-SDME, β-SDDFK, β-SDNA va β-SDAS supramolekulyar komplekslari po‘lat 20 uchun samarali hamda yangi korroziya ingibitori ekanligi aniqlangan;

sintez qilingan supramolekulyar komplekslarning yuqori ingibitorlik xossalari korrozion tok zichligi ($i_{korr} = 0{,}85$ μA/sm^2) kamayishi, zaryad almashish qarshiligi ($R_{ZAl} = 126{,}4$ Ω /sm^2), himoyalash darajasi ($\eta_{\text{Grav.}} = 96{,}93$) hamda sirtni qoplash darajalari ($\theta_{\text{Grav.}} = 0{,}97$) qiymatlarining ortishi orqali isbotlangan;

Kvant kimyoviy hisoblashlar, metall sirtining AKM va SEM mikrofotografiyalari, EDS hamda Raman spektrlari yordamida supramolekulyar komplekslarning ingibirlash mexanizmlari aniqlangan;

Monte Karlo va molekulyar dinamik simulyatsiyalari orqali ingibitorning neytral hamda protonlangan shakllarini metall sirtiga adsorbsiyalanish pozitsiyalari dalillangan;

ilk bor molekulyar dinamik simulyatsiya yordamida β-SDoFDA supramolekulyar kompleksining Fe sirti bilan ta’sirlashishi nazariy jihatdan hisoblangan va Fe-N bog‘ining uzunligi 8,93 Å, Fe-O bog‘ining uzunligi 6,55 Å ga tengligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot obyektlari 100 mg/l konsentratsiyada qo‘llanilganda korroziyadan samarali himoyalashi va metall yuzasiga yaxshi adsorbsiyasi isbotlangan, shu bilan birga β-siklodekstrin asosidagi supramolekulyar komplekslardan foydalanilganda

o‘zaro sinergetik ta’sir natijasida po‘lat 20 tarkibli uskunalarda 97 %gacha himoyalash darajasiga erishilgan;

Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlarida β-SDoFDA, β-SDME, β-SDDFK, β-SDNA va β-SDAS supramolekulyar komplekslari suv aylanma tizimlari, sovitish va isitish tizimlarida ishlatiladigan metall konstruksiyalar korroziyasini oldini oluvchi samarali ingibitorlar ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomidagi barcha natijalar infraqizil spektroskopiya, Raman spektroskopiyasi, proton yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi, termogravimetrik analiz, gravimetrik, potensiodinamik qutblanish, elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskop, energiya-dispersion spektroskopiya, atom kuch mikroskop, zichlik funksional nazariyasi, Monte Karlo va molekulyar dinamik simulyatsiyalari kabi zamonaviy usullar yordamida isbotlangan, shuningdek, ular asosida yuqori impakt faktorli xorijiy (Scopus bazasidagi) jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati β-SDoFDA, β-SDME, β-SDDFK, β-SDNA va β-SDAS supramolekulyar komplekslarning sintezi hamda 0,5 M HCl eritmasida po‘lat 20 uchun 100 mg/l/0,08 mM da korroziya tezligi ($KT_{Grav.}$= 0,042), himoyalash darajasi ($\eta_{Grav.}$ = 96,7) va sirtni qoplash darajasining ($\theta_{Grav.}$ = 0,97) qiymatlari hamda ingibirlash mexanizmini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati siklodekstrin asosidagi olingan supramolekulyar komplekslar suv aylanma tizimlari, sovitish va isitish tizimlarida hamda neft gaz sanoatlaridagi kuchli kislotali agressiv muhitlarda po‘lat 20 namunalarni korroziyadan yuqori darajada himoyalab, metall konstruksiyalarni uzoq muddat samarali ishlashiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gravimetrik, elektrokimyoviy, sirt tahlili usullari va kvant kimyoviy hisoblashlar orqali siklodekstrin asosidagi olingan supramolekulyar komplekslarning po‘lat 20 korroziyasini ingibirlash mexanizmlarini kuchli kislotali muhitlarda o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

siklodekstrin asosidagi supramolekulyar komplekslar: β-siklodekstrin ortofenilendiamin, β-siklodekstrin melamin, β-siklodekstrin 1,5-difenilkarbazid, β-siklodekstrin naftilamin-1 va β-siklodekstrin atsetanilidlardan “GISSARNEFTGAZ” O‘zbekiston-Shveysariya qo‘shma korxonasi laboratoriyasida metall konstruksiya hamda qurilmalarida korroziya jarayoniga qarshi ingibitor sifatida sinovdan o‘tkazildi (“GISSARNEFTGAZ” O‘zbekiston-Shveysariya qo‘shma korxonasining 2023-yil 06-noyabrdagi 730-01/11-sonli ma’lumotnomasi). Laboratoriya sinov natijalariga ko‘ra, supramolekulyar komplekslar yuqori harorat va past konsentratsiyalarda yuqori himoyalash darajasiga ega bo‘lgan. Tadqiqot obyektlari sanoatda foydalaniladigan ingibitorlarga qaraganda kuchli kislotali muhitlarda metall konstruksiya va qurilmalarini yemirilishdan yaxshi himoyalagan hamda metall konstruksiya va qurilmalarini korroziyadan himoyalash uchun talab mavjud sohalarda amaliyotga joriy etishga tavsiya qilingan;

siklodekstrin asosidagi olingan supramolekulyar komplekslar Navoiy kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati Markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasida sinovdan o‘tkazilgan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ ning 2023-yil 13-noyabrdagi 23/01-01-07/575-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot obyektlarining sanoatda ishlatiladigan ingibitorlarga nisbatan turli haroratlarda va kislotali muhitlarda metallarni korroziyadan himoyalash imkoniyati yuqoriligi ko‘rsatib berilgan;

siklodekstrin asosidagi olingan supramolekulyar komplekslarning 100 mg/l li eritmalari “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Rux zavodi sulfat kislotasi sexiga qarashli 1-sonli suv aylanma tizimlarida ishlatiladigan metall konstruksiyalarning korroziyasini oldini oluvchi vosita sifatida sinov tariqasida amaliyotga joriy qilingan (“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ning 2023-yil 16-noyabrdagi SL-1282-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur birikmalar samarali ingibitorlar sifatida suv aylanma tizimlaridagi metall konstruksiyalarning korroziyasini oldini olish imkonini bergan;

yangi supramolekulyar komplekslarning korroziyadan himoyalash xossalari hamda adsorbsiya mexanizmlari № OT-F7-85-raqamli “Aminometilenfosfat kislotasi asosidagi alifatik va geterotsiklik metallar korroziyasi ingibitorlarining sintezi va fizik-kimyoviy xossalari” mavzusidagi loyihada ingibirlash mexanizmini fizik-kimyoviy tadqiq qilish va elektrokimyoviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 03/10-2023-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, neft va gaz sanoatidagi metall materiallarning korroziyasini oldini olishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 1 ta maqola respublika va 4 ta maqola xorijiy (Scopus bazasidagi) jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil qiladi[2].

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari keltirilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fani va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan va chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

[2]Kimyo fanlari doktori, professor X.I.Akbarovga dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun minnatdorlik bildiraman.

Dissertatsiyaning **“Beta siklodekstrin asosidagi yashil korroziya ingibitorlari: So‘ngi ilmiy yutuqlar, innovatsiyalar va imkoniyatlar”** deb nomlangan **birinchi bobi** adabiyotlar sharhiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda korroziyaning asosiy xususiyatlari, ta’siri va himoyasi, ekologik toza va samarali korroziya ingibitorlari sifatida beta siklodekstrinning tabiiy polimer bilan modifikatsiyalari, beta siklodekstrin asosidagi supramolekulyar (mezbon-mehmon) komplekslar kislotali agressiv muhitlardagi ingibitorlarning himoyalash mexanizmlari, kislorod va azot saqlovchi siklodekstrin asosidagi supramolekulyar ingibitorlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda kislotali muhitdagi korroziyaviy jarayonlarni to‘xtatish bo‘yicha respublikamiz va Chet elda olib borilayotgan ishlar qiyosiy muhokama qilingan. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, siklodekstrin asosidagi supramolekulyar ingibitorlar samaradorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Materiallar, siklodekstrin asosidagi supramolekulyar komplekslarning sintezi va tadqiqot usullari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** foydalanilgan po‘lat 20 namunasining tarkibi, tuzilishi, o‘lchamlari va kislotali fon eritmalarning tarkibi keltirilgan. Beta siklodekstrin ortofenilendiamin (β-SDoFDA), beta siklodekstrin melamin (β-SDME), beta siklodekstrin 1,5-difenil karbazid (β-SDDFK), beta siklodekstrin atsetanilid (β-SDAS), beta siklodekstrin naftilamin-1 (β-SDNA) birikmalarining sintez sharoitlari va reaksiya tenglamalari ko‘rsatib o‘tilgan. Infraqizil spektroskopiya, Raman spektroskopiyasi, proton yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi, termogravimetrik analiz, potensiodinamik qutblanish, elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi, gravimetrik, skanerlovchi elektron mikroskop, energiya-dispersion spektroskopiya, atom kuch mikroskop, zichlik funksional nazariyasi, Monte Karlo va molekulyar dinamik simulyatsiya usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sintez qilingan ingibitorlar tuzilishining tahlili**” deb nomlangan **uchinchi bobida** sintez qilingan supramolekulyar komplekslar tuzilishining IQ-spektroskopiyasi, Raman spektroskopiyasi, ^{1}H YaMR va termogravimetrik analiz usullaridan olingan natijalarning tahlili keltirilgan.

B-SD, oFDA, mexanik aralashma va β-SDoFDA supramolekulyar kompleksini infraqizil spektr tadqiqotlari o‘tkazildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. B-SD, oFDA, mexanik aralashma va β-SDoFDA supramolekulyar kompleksining IQ-spektrlari.

Hosil bo‘lgan supramolekulyar kompleks IQ-spektri dastlabki moddalarning IQ-spektrlari bilan solishtirilganda turli darajada o‘zgarishlarni mavjudligi aniqlandi. Masalan, O-H bog‘ining valent tebranishlarining yutilish sohasi 3286,98 sm^{-1} dan 3298,51 sm^{-1} ga C-H bog‘ining valent tebranishlarining yutilish sohasi 2924,69 sm^{-1} dan 2930,28 sm^{-1} ga o‘zgardi. Bundan oFDA β-SD bo‘shlig‘idagi O-H tebranishini kuchaytirgan. Bu supramolekulyar kompleksda gidrofob va Van der Vaals ta’sirlashish mavjud ekanligidan dalolat beradi.

β-SD va β-SDoFDA kompleksining ^{1}H YaMR spektrlari ko‘rsatilgan; turli protonlarning tegishli kimyoviy siljishlari (2-rasmga qarang) o‘rganildi. B-SD ning gidrofob bo‘shliqdagi H3 va H5 atomlari holatining o‘zgarishi oFDA molekulalari β-SD bo‘shlig‘iga kiritilganligining dalili hisoblanadi. Shu bilan birga, oFDA molekulalari kiritilgandan keyin H4 δ qiymati biroz kamaydi. Yuqorida qayd etilgan siljishlardan quyidagi ikkita xulosani berishi mumkin: birinchi navbatda, oFDA ning elektrodonor guruhi ($-NH_2$) vodorodi signallari, H4 va H6 egallagan tomondan cho‘ziladi hamda himoya effektining kuchayishiga olib keladi. Xususan, β-SD bo‘shlig‘ida joylashgan H3 va H5 protonlarining kimyoviy siljishlari ($-C_6H_4-$) fenilen halqasi bilan β-SD gidrofob ichki bo‘shlig‘i o‘rtasidagi Van der Vaals hamda gidrofob o‘zaro ta’sirlar mavjudligidan dalolat beradi.



2-rasm. β-SD va β-SDoFDA supramolekulyar kompleksining ^{1} H YaMR spektrlari.

Dissertatsiyaning “**Olingan ingibitorlarni metallar korroziyasiga qarshi samaradorligini tadqiq qilish**” deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** supramolekulyar komplekslarning ingibitorlik xossalarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan amaliy va nazariy ma’lumotlarning tahlili keltirilgan.

Korroziya va ingibirlash jarayonida sistemaning termodinamik kattaliklarini o‘zgarishini aniqlash. Xlorid ionlari tutgan ingibitorsiz fon eritma uchun E_f= 8,7192 kJ/molni (1-jadvalga qarang), 100 mg/l/0,08 mM konsentratsiyada ingibitor kiritilgan 0,5 M HCl sistemalari uchun E_f =57,72 kJ/molni tashkil qilgan. Ingibirlangan muhitdagi E_f ning qiymati ingibirlanmagan eritmaga qaraganda yuqori

bo‘lgan. Buni ingibitor metall sirtida kimyoviy adsorbsiya tufayli korroziya jarayonlari uchun energetik to‘siqlarni hosil qilishi bilan izohlash mumkin. Ingibirlangan 0,5 M HCl eritmalarida ΔH_f qiymatlari korroziya jarayoni endotermik ekanligini tasdiqlaydi. Ingibitor kiritilishi korroziya jarayonini borishi uchun zarur energiyani oshiradi, natijada, korroziya jarayoni ketishi qiyinlashadi.

1-jadval

Faollanish jarayoni uchun termodinamik kattaliklar qiymatlari (β-SDoFDA)

Termodinamik kattaliklar	Fon eritma	25 mg/l/ 0,02 mM	50 mg/l/ 0,04 mM	75 mg/l/ 0,06 mM	100 mg/l/ 0,08 mM
E_f, kJ/mol	8,72	19,14	24,25	34,55	57,72
ΔH_f, kJ/mol	6,08	16,5	21,61	31,91	55,08
ΔS_f kJ/mol T	-379,55	-360,12	-345,3	-314,85	-245,71
E_f-ΔH_f kJ/mol	2,64	2,64	2,64	2,64	2,64

ΔS_f qiymati 0,5 M HCl li fon eritmada (-379,55 kJ/mol T) va 100 mg/l/0,04 mM da (-245,71 kJ/mol T) eritmasida ingibitor kiritilgan eritma uchun aniqlandi. ΔS_f ning qiymatlari faollashtirilgan ingibitor-metall kompleksining barqarorligini va uning assotsiatsiyasini tasdiqlaydi.

Ingibirlash jarayonining kinetik-adsorbsion ko‘rsatkichlarini aniqlash. 2-jadvalda keltirilganidek, K_{ads} 303K da 170,06 M^{-1}, 313K da 205,76 M^{-1}, 323K da 256,41 M^{-1} va 333K da 259,74 M^{-1} ga teng bo‘lgan, K_{ads} ning bu yuqori qiymatlari β-SDoFDA ingibitori 0,5 M HCl eritmasida po‘lat 20 sirtida yuqori adsorbsiya tezligiga ega ekanligini tasdiqlaydi. ΔG^{o}_{ads} ning past qiymatlari β-SDoFDA ingibitori po‘lat 20 sirtiga osongina adsorbsiyalanishini va metall sirtini agressiv Cl^- ionlari hujumidan samarali himoya qilishini tasdiqlaydi. Aniqlangan ΔG^{o}_{ads} qiymatlari β-SDoFDA ingibitorini po‘lat 20 sirtida adsorbsiyasi aralash turdagi adsorbsiya ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa shuni anglatadiki, ingibitor metall sirtida adsorbsiyalanishi kimyoviy va fizikaviy adsorbsiya mexanizmlari asosida boradi. Ingibitor molekulasidagi geteroatomlar p-elektron juftlarini metall sirtida temirning bo‘sh bo‘lgan d-orbitallari bilan almashish orqali kimyoviy adsorbsiyanish yuzaga keladi. Ingibitor molekulasidagi musbat zaryadlangan hududlari metall sirtida manfiy zaryadlangan joylari bilan o‘zaro ta’sir qiladi va bu jarayon fizikaviy adsorbsiya deb ataladi.

2-jadval

Adsorbsiya jarayonining termodinamik kattaliklarining qiymatlari (β-SDoFDA)

Harorat, K	K_{ads}, M^{-1}	ΔG^{o}_{ads}, kJ/mol	ΔH^{o}_{ads}, kJ/mol	ΔS^{o}_{ads}, J/mol K
303	170,06	-23,06	12,42	117,37
313	205,76	-24,32		
323	256,41	-25,69		
333	259,74	-26,52		

ΔH^{o}_{ads} qiymati 12,42 kJ/mol ekanligi 0,5 M HCl tarkibidagi po‘lat 20 ga β-SDoFDA ning adsorbsiyasi endotermikligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ΔS^{o}_{ads} qiymati 117,3 J/mol K ga teng bo‘ladi. Bu adsorbsion qavatning 0,5 M HCl eritmasida barqaror bo‘lishini ko‘rsatadi. Ushbu barqaror adsorbsion qavat ingibitor

tomonidan metall sirtida oldindan adsorbsiyalangan Cl^- va suv molekulalarini almashtirish orqali hosil bo‘ladi.

Elektrokimyoviy usullar yordamida olingan natijalar va ularning tahlili. Katodda vodorod ajralishi va anodda metallning erishi natijasida kationlarga ajralishi kabi korroziya jarayonlariga ingibitorning ta’siri potensiodinamik qutblanish usuli yordamida o‘rganildi (3-rasm va 3-jadvalga qarang). Olingan natijalardan quyidagi xulosalarga kelindi:

(I) Tafel egrilari himoyalanmagan sistemalarda yuqori korrozion tok zichligi (i_{korr}) bo‘lgan hududlarga siljiganini ko‘rish mumkin. Ingibirlanish natijasida himoya qavat hosil bo‘lishi bilan Tafel egrilari qutblanish qarshiligining keskin oshishi natijasida i_{korr} kamayishi tomonga siljigan. Konsentratsiya oshishi bilan Tafel egrilari siljishi yanada oshib ketgan. i_{korr} ning kamayishi metallning yuzasida hosil bo‘lgan himoya qatlamlarining mustahkam ekanligini ko‘rsatadi. Bu himoya qatlami metall yuzasini korrozion muhitdan himoya qiladi. Natijada, metall korroziyasini oldini oladi.



3-rasm. Po‘lat 20 dan tayyorlangan ishchi elektrodning 0,5 M HCl eritmasida.

β-SDoFDA ingibitori bo‘lgan va bo‘lmagan eritmalar uchun Tafel egrilari (II) himoyalangan hamda himoyalanmagan sistemalar uchun korroziya potensiallari (E_{korr}) o‘rtasidagi farq 40 mV dan past bo‘lib, bundan β-SDoFDA ning metall yuzasida aralash turdagi adsorbsiya bo‘lishini ko‘rsatadi.

3-jadval

0,5 M xlorid kislotadagi (Po‘lat 20 dan tayyorlangan ishchi elektrod) β-SDoFDA ingibitori bo‘lgan va bo‘lmagan eritmalar uchun elektrokimyoviy parametrlarining hisoblangan qiymatlari

Parametr	C_{ing}, mg/l				
	Fon	25	50	75	100
i_{korr}, µA/sm^2	12,85	1,87	1,65	1,03	0,85
E_{korr}, mV	-479	-456	-459	-461	-452
β_a, mV	275,6	251,9	234,1	201,5	185,6
$-\beta_k$, mV	230,9	221,7	201,5	184,1	152,6
η_{PDQ}, %	-	85,44	87,15	91,98	93,38

(III) himoyalanmagan sistema uchun i_{korr} qiymatlari 12,85 μA/sm^2 bo‘lib, bu qiymat korroziya juda shiddatli borayotganligini ko‘rsatadi. β-SDoFDA qo‘shilishi bilan 0,85 μA/sm^2 gacha kamaydi. Yuqoridagi qiymatlardan foydalanib korroziyadan himoyalash samaradorligi 93,38 % ekanligi topildi.
(IV) Tafel qutblanish egrilari (β_k, β_a) β-SDoFDA ingibitori qo‘shilishi bilan chapga va o‘nga siljishini ko‘rsatdi, bu qutblanish jarayonlari himoya qavat hosil bo‘lishi bilan korroziyaning kamayganligini ko‘rsatadi.
(V) Ingibirlanmagan metall yuzasi yuqori qutblanishga ega eritmada korroziya yuqori tezlikda boradi. Buning sababi, metall sirtining past qutblanish qarshiligiga egaligidir. β-SDoFDA ingibitori qo‘shilgan eritma bilan solishtirganda, himoya qatlamlari hosil bo‘lganligi tufayli qutblanish qarshiligi keskin oshib ketadi.

Elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi (EQS) usuli yordamida olingan natijalar va ularning tahlili. EQS analizi yordamida Naykvist egrilari, Body va faza burchak egrilari olindi (4-, 5-rasmlarga qarang). Bu egrilar metall yuzasidagi korroziyalanish va ingibirlanish jarayonlarining elektrokimyoviy kinetik parametrlarini qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi.



a **b**

4-rasm. 0,5 M xlorid kislotada (Po‘lat 20 dan tayyorlangan ishchi elektrod) β-SDoFDA ingibitori bo‘lgan va bo‘lmagan eritmalar uchun Naykvist egrilari (a) hamda ekvivalent tok modeli (b).

Katod va anod o‘rtasidagi elektrokimyoviy reaksiyalar, zaryadlarning tashib o‘tilishi, korroziyalanish va ingibirlanish jarayonlarining ba’zi elektrokimyoviy parametrlari topiladi. Naykvist egrilaridan olingan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, β-SDoFDA konsentratsiyasining oshishi bilan katod va anod hududlari o‘rtasida zaryad almashinuviga keskin kamayadi. Naykvist egrilarining o‘lchami β-SDoFDA qo‘shilishi bilan keskin oshdi, bu ingibirlash jarayonida zaryad o‘tkazish tezligining pasayishini ko‘rsatadi. Olingan Naykvist egrilarida, qutblanish chizmalari himoyalanmagan sistemada yuqori sohalarda joylashganligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich ingibirlangan muhitda past sohalarga o‘zgargan. Z_{mod} o‘zgartirishlar himoyalangan va himoyalanmagan sistemalar o‘rtasida keskin farq qiladi (5a-rasmga qarang). Korrozion sistemaga β-SDoFDA qo‘shilishi Z_{mod} ning qiymati yuqori sohalarda namoyon bo‘ldi, ingibitor bo‘lmaganda esa Z_{mod} quyi sohalarda

namoyon bo‘ldi. Bu natijalar β-SDoFDA ning yaxshi ingibirlash xossalariga egaligini ko‘rsatadi.



a **b**

5-rasm. 0,5 M xlorid kislotada (Po‘lat 20 dan tayyorlangan ishchi elektrod) β-SDoFDA ingibitori bo‘lgan va bo‘lmagan eritmalar uchun Body (a) hamda faza burchak (b) egrilari.

Elektrokimyoviy natijalarga ko‘ra (4-jadvalga qarang) β-SDoFDA ingibitori katod va anod o‘rtasida zaryad almashish jarayonlariga juda keskin ta’sir qiladi. Natijada, metall yuzasida himoya qatlami hosil bo‘ladi. Buning sababi, organik molekulaning tarkibidagi amino va gidroksil guruhlari bilan metall sirti ta’sirlashishidan bog‘lar hosil bo‘lgan. Bu hosil bo‘lgan bog‘lanishlar natijasida metall yuzasi ingibirlanadi.

4-jadval

B-SDoFDA ingibitori bo‘lgan va bo‘lmagan eritmalar uchun EQS parametrlari

C_{ing}, mg/l	R_{Er}, Ω /sm^2	Y_0 × 10^{-3}	n	R_{ZAl}, Ω /sm^2	η_{EQS}, %	C_{QQQ}, μF/sm^2	Xatolik ×10^{-6}
Fon	0,38	51,32	0,8632	5,17	-	265,61	54,31
25	1,51	3,41	0,9247	47,85	89,1	156,14	41,25
50	1,76	2,31	0,9314	75,64	93,16	110,32	36,25
75	2,34	1,15	0,9531	93,21	94,45	88,32	21,25
100	3,14	0,87	0,9861	126,41	95,91	45,12	20,36

Himoyalanmagan sistemalarning zaryad almashish qarshiligi juda kichkina 5,17 Ω /sm^2 ingibitor kiritilishi bilan bu qiymatlar 126,64 Ω /sm^2 ga teng bo‘lgan buning sababi konsentratsiya oshishi bilan bog‘liq. n qiymatlari bu metall sirtini o‘rtacha silliqlik morfologiyasini ko‘rsatadi. Ingibirlanmagan metall sirti uchun *n=0,8632* ga teng bo‘lib, ingibirlanganda esa bu qiymatlar *n=0,9861* gacha oshadi. *n* qiymati birga yaqin bo‘lib, bu ingibitor kiritilishi bilan metallning sirtidagi yoriqlar yopilib metall sirti silliqlanishiga erishilgan. Fon eritma uchun tuzlar, gidroksidlar va korroziya mahsulotlarining ko‘p to‘planishi tufayli qo‘sh qavatli qoplama sig‘imi (C_{QQQ}) qiymati 265,61 μF/sm^2 bo‘ldi. Metall sirtida himoya qatlamining shakllanishi korroziya mahsulotlarning kamayishiga olib keldi. Korroziya

mahsulotlari kamayishi bilan C_{QQQ} ning qiymati sezilarli darajada kamayib 45,12 μF/sm^2 bo‘lib qolgan. C_{QQQ} ning pasayishi himoya qoplamining ingichkaligi oshishiga (d) va eritmaning o‘tkazuvchanligining pasayishiga ta’sir qilgan (ε –ingibitor bo‘lgan va ε^0– bo‘lmagan muhitning o‘tkazuvchanligi).

Po‘lat 20 Metall sirtiga ingibitorlarning qoplanishi natijasida vujudga kelgan funksional guruhlarning spektral o‘zgarishlari Raman spektroskopiyasi orqali o‘rganildi. 6-rasmda β-SDoFDA eritmasidagi metall sirtning va fon eritmadagi metall sirtining Raman sochilish ko‘rsatilgan. Olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki:
(I) oFDA aromatik halqasining C-H va aminoguruhlarning (N-H) bog‘lari uchun Raman signallari mos ravishda 3106 sm^{-1} va 3046 sm^{-1} sohalarda paydo bo‘lgan;
(II) Fe-N signallari 1979 sm^{-1} sohada topilgan; oFDA ning C-N bog‘ signallari 1251 sm^{-1} sohada kuzatilgan;
(III) β-SD ning glyukoza halqasi chiziqli deformatsiyasi uchun 422 sm^{-1}, C-O-C guruh uchun 470 sm^{-1} va C-O bog‘lanishlari 897 sm^{-1} sohalarga mosligi aniqlandi;
Olingan tafsilotlar β-SDoFDA ning metall sirtida adsorbsiyalanganligini ko‘rsatadi.



6-rasm. Ingibirlanmagan va β-SDoFDA supramolekulyar kompleksi bilan ingibirlangan metall sirtini Raman spektrlari.

Skanerlovchi elektron mikroskop yordamida olingan tasvirlar va ularning tahlili (7-rasmga qarang). Skanerlovchi elektron mikroskop yordamida ingibitorsiz muhitda po‘latning korroziyalanishi natijasida hosil bo‘lgan korroziya mahsulotlari va po‘latning yemirilishi kuzatildi.



7-rasm. Skanerlovchi elektron mikroskop yordamida olingan po‘lat sirtining dastlabki (a-100 μm), ingibitorsiz sharoitda korroziyalangan (b-100 μm), β-SDoFDA ingibitori yordamida ingibirlangan (c-100 μm) ko‘rinishi.

Fon eritmaga β-SDoFDA ingibitori kiritilganda po‘lat sirtiga kimyoviy va fizikaviy adsorbsiyalanishi natijasida kompleks birikmalar hosil bo‘lishi aniqlandi.

Ingibirlangan po‘latning sirtida komplekslarning hosil bo‘lishi korroziyalanuvchi sirtning keskin kamayishiga va muhitning turli ta’sirlariga nisbatan barqarorligining ortishiga sabab bo‘ladi.

Energiya-dispersion spektroskopiya natijalari va ularning tahlili. Ingibitorsiz muhitdagi metall sirtining EDS tahliliga ko‘ra O ning miqdori ancha yuqori (28,5 %) va Fe miqdori ancha past (68,1 %) bo‘lib, bu po‘lat 20 ning sirti jiddiy oksidlanganligini ko‘rsatadi (8-rasmga qarang). β-SDoFDA ingibitorini korroziya eritmasiga qo‘shgandan so‘ng, Fe tarkibi sezilarli darajada oshdi (77 %) va O konsentratsiyasi ancha pasaydi (8,6 %). Bu metall sirtining deyarli oksidlanmaganligini, ya’ni korroziyaga uchramaganligini ko‘rsatdi. Kislorod atomlarining mavjudligi, bu po‘lat 20 plastinkasi sirtiga β-SDoFDA ning adsorbsiyasi tufayli yuzaga keldi. Bundan tashqari, po‘lat 20 tarkibida C (9,8 %) keskin o‘sish kuzatildi, bu β-SDoFDA ning po‘lat 20 sirtida adsorbsiyalanganligini ham isbotlaydi.



8-rasm. Metall sirtining dastlabki (a), korroziyalangan (b) va β-SDoFDA bilan ingibirlangan(c) plastinkalarning EDS natijalari.

Dissertatsiyaning “**Ingibirlash jarayonini kvant kimyoviy tahlili**” deb nomlangan **beshinchi bobida** sintez qilingan supramolekulyar komplekslarning ingibirlash jarayonini kvant kimyoviy tahlil qilish bo‘yicha olingan ma’lumotlar keltirilgan.

Zichlik funksional nazariyasi (ZFN) tahlillari β-SDoFDA ning neytral va protonlangan shakllarida amalga oshirildi. Ushbu usulda olingan natijalar asosida, korroziya ingibitorlarining himoyalash xossalari ularning tuzilishiga va fizik-kimyoviy xossalariga bog‘liqligi aniqlandi. β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shakllarining optimallashtirilgan tuzilishlari, LUMO, HOMO va molekulyar elektrostatik potensial (MEP) tuzilishlari topildi (9-rasmga qarang). β-SDoFDA ning optimallashtirilgan tuzilishlari, ingibitorning yuqori qutblanish indeksiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu xossa, β-SDoFDA yuqori ingibirlash xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. β-SD bo‘shlig‘idagi oFDA ning optimallashtirgan neytral yoki protonlangan shakllari, sterik parametrlar, funksional guruhlarning joylashuvlari va aromatik halqalar hamda geteroatomlarning tabiati ingibirlash xossalariga ta’sir qiladi.

β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan supramolekulyar kompleksning nazariy fizik-kimyoviy xossalari aniqlandi (5-jadvalga qarang). Olingan natijalar asosida, quyidagi xulosalar topildi:

(I) β-SDoFDA ning protonlangan shakli yuqori elektromanfiy molekula ekanligi aniqlandi. Korroziyadan himoya qilish mexanizmida protonlangan molekulalar metall sirti bilan o‘zaro ta’sirlashadi.



9-rasm. β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shakllarining optimallashtirilgan tuzilishlari, LUMO va HOMO sohalari, molekulyar elektrostatik potensial (MEP).

(II) β-SDoFDA ning kimyoviy qattiqlik va yumshoqlik xususiyatlari protonlanish jarayonlari bilan o‘zgaradi. Chunki aminoguruhlarning protonlanishi β-SDoFDA kimyoviy qattiqligi va yumshoqligiga ta’sir qiladi. Bu o‘zgarishlar β-SDoFDA ning ingibirlash xossalariga ta’sir qiladi.

5-jadval

Neytral va protonlangan β-SDoFDA supramolekulyar kompleksning nazariy topilgan fizik-kimyoviy xossalari

Fizik-kimyoviy xossalari	Neytral shakl	Protonlangan shakl
I (eV), Molekulyar ionlanish potensiali	4,397	6,104
A (eV) Elektron yaqinligi	0,224	1,719
χ (eV) Elektron manfiyligi	2,310	3,911
η (eV) Kimyoviy qattiqlik	2,086	2,192
σ (eV) Kimyoviy yumshoqlik	0,479	0,456
ΔN Elektron almashish miqdori	0,321	0,336
ΔE Elektron fraksiya miqdori	-0,521	-0,548

(III) ΔN va ΔE ning qiymatlari protonlangan shaklda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu xossa β-SDoFDA ning korroziyaga qarshi xossaga ekanligini tasdiqlaydi.

Molekulyar dinamik simulyatsiyasi. MD simulyatsiya natijasida β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shakllarini Fe (110) sirtida adsorbsion konfiguratsiyalari topildi (10-rasmga qarang). Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, mehmon molekulasining aminoguruhlari va β-SD ning gidroksil funksional

guruhlari po‘lat 20 sirtiga adsorbsiyalanishini taminlaydigan asosiy markazlar hisoblanadi. β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shakllari metall sirtiga parallel adsorbsiyalanishi ko‘rsatdi. Metall sirtiga xlorid ionlari va suv molekulalarining ta’sirini hosil bo‘lgan himoya qatlam keskin kamaytirishi natijasida korroziyani kamayishiga erishilgan. Tanlangan ingibitor metall sirtida hosil qilgan barqaror mustahkam qavat evaziga boshqa agressiv ionlari va metall sirti o‘rtasida himoya to‘siq hosil qiladi. Natijada, metallning eritma bilan ta’sirlanishi kamayib ketadi. β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shakllarining MD simulyatsiya qilish jarayonini harorat o‘zgarishiga bog‘liqligi aniqlandi.



10-rasm. β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan shaklarini Fe (110) sirtida adsorbsiyasini MD simulyatsiyasi orqali topilgan natijalari.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, tanlangan supramolekulyar sistemalarning MD simulyatsiyasi harorat o‘zgarishiga nisbatan chidamliligi aniqlandi. Harorat o‘zgarishi bilan deyarli metall yuzasida ingibitorning adsorbsiyasi o‘zgarmaganligi dalillandi. MD simulyatsiyasi natijalarida radial tarqalish funksiyasi (RTF) tahlili amalga oshirildi natijada Fe (110) sirtida Fe-N va Fe-O bog‘lanish qiymatlari nazariy jihatdan hisoblab chiqildi (11-rasmga qarang).



11-rasm. MD simulyatsiyasi orqali olingan Fe(110) sirtida β-SDoFDA ingibitorining neytral va protonlangan supramolekulyar kompleksning N hamda O atomlarining RTF qiymatlari.

MD simulyatsiyasi usuli orqali olingan β-SDoFDA ingibitorning neytral va protonlangan supramolekulyar kompleksning Fe(110) sirtida adsorbsiyalanishi natijasida Fe-O va Fe-N bog‘larining hosil bo‘lishi RTF usuli yordamida topildi. Olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, neytral shaklda Fe-O uchun bog‘lanish

uzunligi 2,89 Å va Fe-N uchun 10,63 Å. Protonlangan shaklda esa Fe-O uchun bog‘lanish uzunligi 8,93 Å va Fe – N uchun 6,55 Å ekanligi aniqlandi. Ushbu hodisa O va N atomlarining metall sirti bilan yaxshi o‘zaro ta’sirlanishi natijasida kuchli kimyoviy bog‘lar hosil qilishini tasdiqlaydi.

XULOSALAR

1. Beta siklodekstrin asosida kompleks tipidagi yangi β-SDoFDA, β-SDME, β-SDDFK, β-SDNA va β-SDAS supramolekulyar ingibitorlar sintez qilindi. β-SD aminlar bilan mezbon-mehmon turdagi komplekslar hosil qilishi va ularning tuzilishi IQ, ^{1}H YaMR, Raman spektroskopiya va TGA usullari yordamida isbotlandi.

2. Gravimetrik usul yordamida 0,5 M HCl li muhitda ingibitorlar samaradorligi turli konsentratsiya va haroratlarda o‘rganildi. 100 mg/l konsentratsiyali β-SDoFDA bilan ingibirlash jarayonning E_f (57,72 kJ/mol) va ΔH_f (55,08 kJ/mol) qiymatlari po‘lat 20 korroziyasi uchun yuqori energetik to‘siq yaratishi, shuningdek, adsorbsiya jarayoninig termodinamik funksiyalari (ΔG^{o}_{ads}=-26,52 kJ/mol) qiymatlaridan esa jarayonda bir vaqtning o‘zida fizikaviy va kimyoviy adsorbsiya borishi aniqlandi.

3. Potensiodinamik qutblanish va elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiya usullari yordamida supramolekulyar komplekslar katod (β_a=185,6 mV) hamda anod ($-\beta_k$=152,6 mV) jarayonlariga ta’sir qilishi aniqlandi. Bu ta’sirlar ingibitorlarning metall yuzasida himoya qavati hosil qilishini, shuningdek, metall yuzasi va muhit zarrachalari o‘rtasidagi aloqani maksimal darajada kamayishini isbotladi.

4. Ingibirlanmagan va ingibirlangan muhitlarda po‘lat 20 ning sirt morfologiyasi SEM, EDS, AKM va Raman spektroskopiya yordamida tahlil qilindi. Ingibitorlar metall yuzasida yupqa himoya qavati hosil qilishi va bu qavat po‘lat 20 yuzasini suv hamda boshqa agressiv ionlaridan yuqori darajada himoyalashi aniqlandi.

5. Zichlik funksional nazariyasi yordamida supramolekulyar komplekslarning protonlangan shakllari yaxshi ingibirlash xossasiga ega ekanligini isbotladi. Molekulyar dinamik simulyatsiya yordamida bog‘ uzunliklari (β–SDoFDA ingibitorida Fe-O 8,93 Å va Fe-N 6,55 Å) aniqlandi.

6. O‘rganilgan ingibitorlar “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ da, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ da va “GISSARNEFTGAZ” O‘zbekiston-Shveysariya qo‘shma korxonasida yopiq aylanma metall konstruksiyalari hamda qurilmalarida korroziya jarayoniga qarshi ingibitor sifatida sinovdan o‘tkazildi va joriy etishga tavsiya qilindi.

THE ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL BASED ON THE SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARD OF SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.K.01.03 AT THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

ELIBOEV ILYOS ASKAROVICH

ELECTROCHEMICAL AND ADSORPTION PROPERTIES OF SUPRAMOLECULAR COMPLEXES BASED ON CYCLODEXTRIN

02.00.04. – Physical chemistry
02.00.11 – Colloid and membrane chemistry

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN CHEMICAL SCIENCES

Tashkent – 2024

The title of the doctor of philosophy (PhD) has been registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan with registration number B2022.4.PhD/K560.

The dissertation has been carried out at the National University of Uzbekistan

The abstract of dissertation in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) is available online of Scientific council (www.ik-kimyo.nuuz.uz) and on the website of "ZiyoNET" information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisors:	**Kholikov Abduvali** Doctor of Chemical Sciences, Professor
	Berdimurodov Elyor Doctor of Chemical Sciences, Docent
Official opponents:	**Ruzimuradov Olim** Doctor of Chemical Sciences, Professor
	Kodirov Khasan Doctor of Technical Sciences, Professor
Leading organization:	**Institute of General and Inorganic Chemistry**

The defense of the dissertation will take place on "06" 04 2024 in "11^{00}" at the meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.K.01.03 at National University of Uzbekistan (Address: 100174, Tashkent, University street. 4. Ph.: (99871) 227-12-24; fax: (99824) 246-02-24; e-mail ilmiy_kengash@nuu.uz).

The dissertation has been registred at the Informational Resource Centre of National University of Uzbekistan under № 20 (Address: 100174, Tashkent, University street 4. Ph.: (99871) 227-12-24), fax: (99824) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

The abstract of the dissertation has been distributed on "12" 03 2024 year
Protocol at the register № 16 dated "11" 03 2024 year

Z.A.Smanova
Chairman of the scientific council for awarding of the scientific degrees, Doctor of Chemical Sciences, Professor

N.Kh.Kutlimurotova
Scientific secretary of the scientific council for awarding of the scientific degrees, Doctor of Chemical Sciences, Docent

Kh.I.Akbarov
Chairman of the scientific seminar under scientific council for awarding the scientific degrees, Doctor of Chemical Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

The relevance and importance of the dissertation title. Today, the importance of having high efficiency in various acidic environments to protect metals from corrosion is recognized globally, alongside the development of import-substituting inhibitors. Technical and industrial advancements have led to an increasing demand for metals, which, in turn, fuels the need for effective corrosion inhibitors. Special emphasis is being placed on creating environmentally friendly, economically viable supramolecular complex-type inhibitors, moving away from toxic, high-concentration compounds. Crucial to this effort is the development of inhibitors that form a solid protective layer on metal surfaces, effective in low concentrations and across various temperature ranges.

The rising global demand for metal corrosion inhibitors highlights the advisability of developing new, universal inhibitors based on organic and supramolecular compounds. Addressing these challenges involves producing inhibitors with specific properties from local raw materials, a significant scientific endeavour. Emphasis is also on reducing metal corrosion through green inhibitors derived from organic plant-based substances.

In our republic, there is a strong focus on advancing innovative technologies and fostering the swift and stable growth of the industry. As part of these efforts, notable progress is being made in various aggressive environments, including water cooling/heating systems and the oil and gas industry, establishing scientific foundations for protecting metal materials from corrosion. The new development strategy for Uzbekistan sets out key objectives for the rapid growth of the national economy and achieving high growth rates[3]. In this context, creating import substitutes that are competitive, compliant with global quality standards, efficient in low concentrations, safe, and biodegradable is a pressing task.

The decrees issued by the President of the Republic of Uzbekistan, including № PF-6244 of June 9, 2021, on enhancing industrial potential in regions, №. 60 of January 28, 2022, on the New Uzbekistan development strategy for 2022-2026, PQ-4805 of August 12, 2020, on improving the quality of continuing education and science productivity in chemistry and biology, and PQ-3264 of August 29, 2017, on improving export-import activities in the chemical industry, as well as the outcomes of this dissertation, will contribute significantly to the implementation of these initiatives.

The conformity of research with priority directions of development of science and technologies of the Republic. This work is related to the development of science and technology of the Republic, specifically under the VII plan. It is being carried out in accordance with the priorities of “Chemical Technology and Nanotechnology”.

The degree of study of the problem. Most of the research conducted by scientists worldwide is focused on the development of a new generation of corrosion inhibitors. A literature review reveals that extensive work has been dedicated to electrochemical methods involving various materials as inhibitors (Guo et al., Fan

[3] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the innovative development strategy of the Republic of Uzbekistan in 2022-2026” PF-165 on July 6, 2022.

et al., Verma et al., Dehghani et al., Dagdag et al., Damien et al., Berge et al., Wang et al., Burstein et al., and Mattos et al.). Currently, a wide range of physical, chemical, electrochemical, and other methods have been developed for researching corrosion inhibitors. However, with the advancement of technology, particular attention is being given to scientific investigations into the mechanisms of organic compounds as inhibitors in the corrosion process and their impact on the surface of steel.

Scientists from Uzbekistan, including Tillayev, Tadjikhodjayev, Kurbanov, Djalilov, Ikramov, Yusupov, Akbarov, Guro, Kholikov, Kadyrov, Eshmamatova, Berdimurodov, and others, have made significant contributions to addressing the challenge of protecting metals from corrosion and synthesizing novel chemical compounds for use as inhibitors. However, the mechanisms by which cyclodextrin-based supramolecular complexes interact with the surface of Steel 20 in strongly acidic environments have not been studied.

The connection of investigation with plans of science-investigated works of the science-investigate institution where dissertation was carried out. The research dissertation with the reference number A-12-46 titled “Improving the Effectiveness of Anticorrosion Polyelectrolytes and Its Application in Practice” was conducted as part of a hands-on project in accordance with the research work plan of the National University of Uzbekistan (2015-2017). The objective of the study was to enhance the efficiency of polyelectrolytes as anticorrosion agents and explore their practical applications.
